

"BOBUR BOBOM HAYOTI HAQIDA QIMMATLI SATRLAR"**Behruz Toshtemirov Botirovich***O'zbekiston Respublikasi**Surxondaryo viloyati**Jarqo'rg'on tumani 2-sonli umumta'lim**maktab o'quvchisi hamda 5-sonli Bolalar musiqa va san'at maktab o'quvchisi.*

Annatsiya; *Buyuk mutafakkir Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz shoh ham shoir bo'lgandir. Uning she'rlari barcha insonlarga juda yoqadi. G'azallarida tabi'at, hayot manzaralari aks etgan. Qancha Bobur bobomiz haqida she'r, g'azal bitsak shunchalar kamdir. Bobur bobomizni tavallud topgan kunini barcha keng nishonlanadi, butun maktablarda tadbir, tanlovlar o'tkaziladi. Tadbir va tanlovlar o'zgacha shukuh bilan o'tadi. Biz yoshlar bunday buyuk allomamiz bilan har doim faxrlanamiz.*

Kalit so'zi; *Bobur biz yoshlar uchun qanday o'rni bor, Boburiylar saltanati haqida, mashhur-mutafakkir, Boburnoma qanday kitob, Adabiy-badiiy tushuncha.*

Kitobsevar yoshlar yurtimizda juda ko'pdir. Ba'zida kitob ko'p lejin shu ham yetmaydi. Doim yoah kitobxonlar kitob o'qir ekan eng avvolalar Bobur bobomizning g'azallari, ruboiylarni yod oladi. Qancha ko'p g'azal yod olsa shuncha bolaning talaffuzi ravon bo'ladi, erkin so'zlasha oladi. G'azalni ham hamma yod ola ololmaydi shunday ekan biz yoshlar ko'proq kitob yod olishimiz kerak. Bobur bobomiz biz yoshlar uchun qanday o'rni biz uchun katta.

Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz 1526-yil 21-aprelida Hindistonning Dehli hukmdori Ibrohim Lo'diy qo'shonlarini tormor keltiradi. G'alabaliklar natijasida Bobur bobomiz Shimoliy Hindiston davlatini egalaydi. Oz vaqt o'tgach 1526-yilning 27-aprelida Dehli shahrida Bobur bobomiz podahoh bo'ldi. Shu tariqa Boburiylar sulolasi boshlandi. Boburiylar temuriyzoda Boburning avlodlaridir. Ular tarixiy hujjatlarda o'zlarini "Boburiy mirzolar" deb yuritishgan. Bobur davlat ishlarida adolatli qaror chiqarishga intilgandir.

Shunday Bobur-mashhur mutafakkir insondir. Biz Bobur podshoh yashagan o'sha ziddiyatli, beomon, besaranjom zamonda davlatni boshqarish uchun jasur sarkarda bo'lish juda muhim edi. Tabiat Boburni ana shunday xislatni on'om etgan edi. Tarixga qarasa Bobur bobomizni sheryurak, jasur bo'lgan degan manbalar mavjuddir. Shuninga uchun ham bobomiz xalq tilidan "sher" degan laqabini olgan. Qilichbozlik, kamonbozlikda ham juda mahoratli bo'lgan. O'linga hamisha tik boqqan. Dushmanlardan qo'rqmay jang boshlar edi. Bobur bobomiz kuchli qo'shin tuza olganlar.

Boburnoma – adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o'z davridagi ko'plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko'plab tog'lari, daryolari,

o‘rmon va cho‘llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma‘lumotlar jamlangan. Boburnoma – o‘zbek nasrining go‘zal namunasi. Ungacha Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari muqaddimasida, Rabg‘uziy ijodida nasr namunalari uchraladi. Alisher Navoiy uni yuqori pog‘onaga olib chiqdi. Biroq “Boburnoma” bu borada o‘zbek nasrining o‘ziga xos kashfiyoti sifatida yuz ko‘rsatdi. Kitoblar ko‘p dunyoda lekin Boburnoma kitob bitta. Undagi hissiyotli yozilgan, yosh kitobxonlar uchun boshqacha Boburnoma asarda Bobur bobomiz haqida yozilgan. Hindiston haqida ma‘lumotlar bor. Bobur bobomiz podshoh, davlat arbobi, shoir, mohir sarkarda, bastakor, ayni paytda yirik tarixchi edi. Bu borada uning abadiylikka muhrlangan asar bu “Boburnoma”dir. Bu asar Movarounnahr, Afg‘oniston, Hindiston, Eron xalqlari tarixi yozilgan. Bu xotira asarlar sirasiga kiradi. Asar 1493-1529 yillar oralig‘ida bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar haqida tilma yil hikoya qiladi. Shunda satrlar yozilgan “Hindiston bizning viloyatlardan o‘zgacha olamdir. Jangal va sahrosi, hayvanot va nabototi, eli va tili tomg‘iri va yeli barchasi o‘zgachadir”.

Tole yo‘qki jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerin qo‘yib, Hind sari yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.
Zahiriddin Muhammad Bobur

Bobur adabiy-badiiy faoliyatida nozik she‘rlar katta o‘rin tutadi. Ularda insoniylik, tabiat, osmon, yer yuzi, vatan sog‘inchi, zaracha tuproq, mehr-oqibat, mehr-muruvvat g‘oyalar ilgari surilgan. Uning “Mubayyin” asarida ham o‘sha zamon soliq tizimi, soliq yig‘ishning qonun-qoidalari bayon etilgan. Har doim Bobur bobomizni 14-fevral kuni O‘zbekiston bo‘ylab tavalludi keng nisholanadi. Har xil tanlovlar joriy qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston tarixi 8-sinf.
2. Boburnoma kitobi.